

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

NURIMBETOV RAXMATULLA IBRAGIMOVICH

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING STRATEGIK YONDASHUVLARI:
HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent - 2024

Siyosiy fanlar doktori dissertatsiyasi (DSc) avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc) по
политическим наукам**

Content of the Doctoral dissertation (DSc) on political Sciences

Nurimbetov Raxmatulla Ibragimovich

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O‘zbekiston Respublikasining strategik yondashuvlari: hozirgi holati va istiqbollari.....3

Нуриμβетов Рахматулла Ибрагимович

Стратегические подходы Республики Узбекистан в рамках Шанхайской организации сотрудничества: состояние и перспективы.....35

Nurimbetov Rakhmatulla Ibragimovich

Strategic approaches of the Republic of Uzbekistan within the Shanghai Cooperation Organisation: current situation and perspectives.....71

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of Published Works75

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

NURIMBETOV RAXMATULLA IBRAGIMOVICH

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING STRATEGIK YONDASHUVLARI:
HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Ss68 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.rektorat@uwed.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sultanova E’tibor Sidikovna
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Mirzoxid Akramovich
tarix fanlari doktori, professor

Ubaydullaeva Saodat Fatxullaevna
siyosiy fanlar doktori, dotsent

Sheraliev Oybek Rixsillaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat Boshqaruvi Akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «_____» soat____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (8 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 233-45-21.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

D. B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

D. I. Madaminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

Sh. A. Yovqochev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi vazifasini bajaruvchi, siyosiy
fanlar doktori, professor

KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida yangi dunyo tartibotini shakllantirishga qaratilgan urinishlar kuzatilayotgan, yetakchi davlatlar o'rtasida geosiyosiy raqobat kuchayib, xalqaro huquq normalari va tamoyillariga zid xatti-harakatlar sodir etilayotgan bugungi sharoit global boshqaruv tizimiga nisbatan jiddiy ishonchsizlik inqirozini keltirib chiqarmoqda. Bu esa davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim ustuni vazifasini o'tab kelgan universal xalqaro tashkilotlar faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, yangi tuzdagi xalqaro tuzilmalarning vujudga kelishini kun tartibiga chiqarmoqda. Shu bois, bugunga kelib Shanxay hamkorlik tashkiloti zamonaviy xalqaro munosabatlar va jahon siyosatining o'ziga xos va yirik ishtirokchilaridan biriga aylanmoqda.

Insoniyat oldida turgan bugungi dolzarb muammolar – turli xavf-xatarlarga qarshi global kurash, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash, davlatlararo mojarolarni oldini olish, ularni tinch yo'l bilan hal qilish, iqlim o'zgarishi, xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishi va tabiiy ofatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashishda ko'p tomonlama hamkorlik tashkilotlarining salohiyatidan unumli foydalanish masalalari xalqaro ilmiy tahlil markazlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortmoqda. Shunday sharoitda Shanxay hamkorlik tashkilotining terrorism, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashdagi ilg'or tajribasi, tamaddunlararo muloqot mexanizmi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning “Sharq modeli” sifatida namoyon bo'layotgani, shuningdek, uning jug'rofiy kengayish tendensiyasi bir qator ilmiy tadqiqot doiralarining qiziqishi ortishiga hamda tashkilot faoliyati va istiqbolini chuqur tadqiq etishga undamoqda.

O'zbekiston Respublikasining ochiqlik va konstruktivlikka asoslangan pragmatik tashqi siyosatida Shanxay hamkorlik tashkiloti muhim va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatimiz oldida turgan muayyan tashqi siyosiy vazifalarni hal qilishda yordam bermoqda, mamlakatimiz va mintaqamizni barqaror rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni xalqaro ko'lamda ilgari surishga va muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali xalqaro nufuzi va imijini oshirishga xizmat qilmoqda. “Barchaning va har bir tomonning manfaatlariga javob beradigan xalqaro hamkorlikni ko'p tomonlama institutlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu institutlar faoliyatidagi muayyan kamchiliklarga qaramasdan, ular mintaqaviy va global miqyosda davlatlararo hamkorlikning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qilishda davom etmoqda. Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar mamlakatlar o'rtasidagi turli kelishmovchiliklarni yengib o'tish, o'zaro anglashuvni mustahkamlash, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, savdo-sotiqni kengaytirish hamda madaniy-gumanitar almashinuvni rag'batlantirishga yordam beradi”¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston -2030” Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvar, PF-60-son), “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-aprel, PF-5400-son) farmonlari; “O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 26-iyun, PQ-3807-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680) qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va “Yo‘l xaritalari”da belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. ShHT ko‘p tomonlama hamkorlik instituti sifatida Tashkilotga a‘zo davlatlarning yetakchi tadqiqot va “aql markazlari”, xususan XXRdagi Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar instituti, XXR TIV akademiyasi huzuridagi Xitoy xalqaro muammolar akademiyasining Yevrosiyo instituti, Shanxay xalqaro tadqiqotlar akademiyasi, Fudan universiteti Xalqaro tadqiqotlar instituti, Shimoli-Sharqiy universitet huzuridagi Ipak yo‘lini o‘rganish instituti, Rossiya Federatsiyasining Xalqaro ishlar bo‘yicha kengashi, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti qoshidagi Xitoy, Sharqiy Osiyo va ShHT Markazi hamda Yevroatlantika xavfsizlik markazi, Rossiya Fanlar akademiyasining Xitoy va hozirgi Osiyo instituti, Hindistonning xalqaro ishlar bo‘yicha kengashi huzuridagi ShHTni o‘rganish Markazi, Javaxarlal Neru universiteti qoshidagi Rossiya va Markaziy Osiyo instituti, Kuzatuv-tadqiqot fondi, Pokistondagi Islomobod strategik tadqiqotlar, Islomobod siyosatni tadqiq etish, Milliy mudofaa institutlari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston prezidentlari huzuridagi Strategik tadqiqotlar institutlari, Tehrondagi Eron tadqiqotlar markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar hamda Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutlari tomonidan tadqiq etilmoqda.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga doir tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida Xitoy Xalq Respublikasining “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi, terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda Xitoyning strategik tashqi siyosiy faoliyati tizimli tarzda o‘rganilgan (Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar instituti va Shanxay xalqaro tadqiqotlar akademiyasi, Xitoy); Shanxay hamkorlik tashkiloti a‘zolari safining kengayib borishida, global kun tartibining tashkilot faoliyatida o‘z aksini topishida, shuningdek, tashkilot a‘zolari o‘rtasida yakdil yondashuvlarni muvofiqlashtirishda Rossiya va Xitoyning

yetakchi roli asoslantirilgan (Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti qoshidagi Xitoy, Sharqiy Osiyo va ShHT Markazi hamda Yevroatlantika xavfsizlik markazi, Rosssiya); Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining tinch va barqaror taraqqiyoti, mintaqaviy xavfsizlik hamda noodatiy xavf-xatar va chaqiriqlarga qarshi kurashda Markaziy Osiyo mintaqasi tashkilotning geografik yadrosi sifatida muhim o‘rin tutishi dalillangan (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston prezidentlari huzuridagi Strategik tadqiqotlar institutlari).

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlaridan kelib chiqib, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida samarali tashabbuslarni ilgari surish, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash, Afg‘onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishga ko‘maklashgan holda Transafg‘on temir yo‘l loyihalarini ro‘yobga chiqarish, ShHT a‘zolari o‘rtasidagi tenglik, konsensus va geosiyosiy muvozanatni ta‘minlash, shuningdek, istiqbolda tashkilotning harbiy-siyosiy blokka aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi masalalarda ilmiy tadqiqotlar safi tobora kengayib bormoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro munosabatlarda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarning tutgan o‘rni va roli, xususan Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatini o‘rganishning nazariy va amaliy jihatlari o‘zbekistonlik va xorijlik olimlar, tadqiqotchilar va tahlilchilarning e‘tiborini tortib kelmoqda.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan adabiyotlar dissertatsiyada oltita guruhga ajratilgan. *Birinchi guruhga* o‘zbekistonlik olimlarning ishlari kiritilgan bo‘lib, A.Xodjayev, M.A.Raximov, S.E.Sultanova, D.B.Sayfullayev, N.Kasimova, Sh.Shazamanov, S.Raximov, U.A.Xasanov, O.Sheraliyev, S.Ubaydullayeva, M.Sharipov, I.Bekmuratov, A.Muxamedjanov, X.Vaxabov kabi tadqiqotchilarning asarlarida mamlakatimizning xalqaro tashkilotlar, jumladan Shanxay hamkorligi doirasidagi hamkorligi, Tashkilotning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi roli va o‘rni, O‘zbekiston va Xitoy munosabatlaridagi omili, shuningdek ShHT huquqiy institutlarining asoslari hamda iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi faoliyatining muayyan jihatlari ochib berilgan².

Ikkinchi guruhdan xitoylik olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rin olgan. Chjou Xuashen, Pan Guan, Sun Guandji, Van Siaotsuan, Pan Dapen, Van Chaotsin, Din Syaosin, Li Xaydun kabi olimlarning tadqiqotlarida Shanxay hamkorlik tashkilotining g‘oyaviy asoslari, Xitoyning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy strategiyasi, XXRning dunyodagi ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy va geoiqtisodiy konsepsiyalarning amaliyotda tatbiq etilishiga doir jihatlari yoritilgan³.

Uchinchi guruhga rossiyalik olimlarning mavzuga oid ilmiy ishlari kiritilgan. S.Luzyanin, A.Lukin, Yu.Nikitina, D.Borisov, D.Gordiyenko, Ye.Koldunova, S.Karaganov, M.A.Konarovskiy, Yu.V.Kulinsev, A.F.Klimenko, L.E.Vasilev, T.V.Bordachyov, I.E.Denisov, M.G.Shilina, I.A.Safranchuk, A.Klimenko, A.I.Nikitin, M.L.Titarenko, Ye.P.Bajanov, V.I.Yakunin,

² Ushbu olimlarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

³ Mazkur tadqiqotchilarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

Ye.I.Safronova, A.G.Larin, Yu.M.Galenovich, N.V.Serebryakova, S.P.Bazykova va N.M.Mejevichning tadqiqotlarida ShHT asosan xavfsizlik tashkiloti, uning Rossiya-Xitoy munosabatlaridagi o‘rni va roli hamda “Katta Yevrosiyo” konsepsiyasini hayotga tatbiq etishdagi ishtiroki nuqtai nazaridan tahlil qilingan⁴.

To‘rtinchi guruhga Markaziy Osiyo olimlarining ilmiy tadqiqotlari kiritilgan. M.Laumillin, B.Sultanov, M.Imanaliyev, R.K.Alimov, R.Turarbekova, A.Kaukenova, R.Izimov, M.Ashimbayev, G.Xadjiyeva, K.Bayzakova, G.Ergeshkyzy, A.Djekshenkulov, G.A.Tusunbayeva, T.G.Shaymergenov, J.Saliyev, M.Suyunbayev, K.Sheryazdanova, X.Xoliqnazarov, B.Rizoyev, A.Nazarov, G.K.Iskakova, A.Iskandarov, F.Mo‘minova, F.Salimov, A.Serikaliyeva kabi olimlarning ishlarida asosan ShHTning Markaziy Osiyo geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlaridagi, mintaqa mamlakatlarining Xitoy va Rossiya bilan hamkorligidagi o‘rni va roli ochib berilgan⁵.

Beshinchi guruhdan g‘arb olimlarining ishlari o‘rin olgan. S.Aris, A.Beyles, A.Koen, S.Blenk, P.Dunay, J.Alison, S.Loshelder, A.Kuli, S.Grin, M.Fredxolm, R.Pantuchchi, G.Vaker, M.Telo, T.Ambrioso, A.Obdiyenko, A.Libmanning tadqiqotlarida ShHT Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini amalga oshiruvchi tashkilot sifatida o‘rganilgan⁶.

Oltinchi guruhga ShHTning yangi a‘zolari hisoblangan Hindiston, Pokiston va Eron olimlarining ishlari kiritilgan. K.Gupta, A.Anadi, M.S.Roy, K.Moxapatra, P.Stobdan, N.Joshi, S.Amin, R.Zeb, M.Saif, M-Sh.Ketran, Z.A.Xan, X.T.Xan, V.Keleji Shanxay hamkorlik tashkilotining ko‘proq “yangi turdagi mintaqaviy tashkilot” sifatida Janubiy Osiyo va O‘rta Sharq geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlaridagi o‘rnini tadqiq etishgan⁷.

Xorijlik va o‘zbekistonlik olimlar asosan ShHTning ko‘p tomonlama institut sifatidagi xususiyatlarini, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardan farqli jihatlarini, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashga qo‘shgan hissasini tadqiq etganlar. Ammo, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga qaratilgan siyosatini tanqidiy tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama diplomatiyasida ShHTning o‘rni va roli, ushbu tashkilot bilan hamkorligining rivojlanish bosqichlari, mamlakatimizning Shanxay hamkorlik tashkilotiga oid strategiyasining asosiy prinsiplari va ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek mazkur tuzilmaning istiqboldagi rivojlanishiga doir yondashuvlari va ularning O‘zbekiston milliy manfaatlariga ta‘siri shu kunga qadar qariyb o‘rganilmagan.

Shuning uchun ham mazkur dissertatsiyani tayyorlashda katta hajmdagi rasmiy hujjatlar bazasidan foydalanildi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi - Shanxay hamkorlik tashkilotining normativ-huquqiy va dasturiy hujjatlari. Ikkinchisi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va maqolalari,

⁴ Ushbu olimlarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

⁵ Mazkur tadqiqotchilarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

⁶ Ushbu olimlarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

⁷ Mazkur tadqiqotchilarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

Tashqi ishlar vazirligining arxiv hujjatlari, ShHT Bosh kotibi va mansabdor shaxslarining nutq va intervyulari hamda mavzuga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlar. Mazkur hujjatlar bazasini tahlil qilish O‘zbekiston Respublikasining ShHT bilan aloqalari xronologiyasini, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari va ularni belgilab bergan asosiy omillarni, shuningdek Tashkilot faoliyatida va uning mamlakatimiz bilan hamkorligida erishgan yutuq va kamchiliklarini hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Muammoning ilmiy-amaliy ahamiyati, dolzarbligi va yetarlicha o‘rganilmagani mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlik strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari va ularning rivojlanish istiqbollari doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda mintaqada geosiyosiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan faoliyatidagi ilmiy-nazariy, metodologik jihatlar va manbashunosligini yoritish;

O‘zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotiga strategik yondashuvlarining konseptual asoslari va asosiy prinsiplarini tadqiq etish;

ShHT doirasida O‘zbekiston faoliyatining siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilish orqali erishilgan yutuqlar va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ochib berish;

Tashkilotning kelgusida kengayishi va transformatsiyasi bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilish hamda ularning O‘zbekiston manfaatlariga ta’sirini aniqlash;

ShHT faoliyatini modernizatsiya qilish va uning huquqiy-institutsional asoslarini isloh etish masalalariga O‘zbekistonning yondashuvlarini yanada takomillashtirishni nazarda tutuvchi siyosiy-diplomatik chora-tadbirlar yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonning ShHT bilan hamkorligi masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonning ShHT doirasidagi siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, transport va logistikaga oid hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik aloqalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada muammoviy-xronologik, tizimlashtirish, tuzilmaviy-funksional, kuzatish, qiyoslash, tarixiylik, tahlil va sintez, institutsional va fanlararo yondashuv, kontent-tahlil, SWOT-tahlil, prognozlashtirish va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

O‘zbekistonning mintaqa va xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashda Shanxay hamkorlik tashkilotining keng imkoniyatlaridan samarali foydalanish, Markaziy Osiyoni mazkur tashkilotning mintaqaviy yadrosiga aylantirishga qaratilgan pragmatik tashabbuslari va bunday yondashuv orqali mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq strategiyasi “yangi mintaqaviylik” nazariyasiga ko‘ra asoslab berilgan;

O‘zbekiston Respublikasining ShHTga nisbatan strategiyasini belgilab beruvchi milliy-mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosatda mustaqillikni ta’minlash, Markaziy Osiyoda yetakchi tashqi kuch markazlarining raqobatchi manfaatlarini strategik jihatdan mutanosiblashtirish, tashkilotning yagona kuch nazoratiga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik va tuzilma doirasida teng huquqlilikni saqlash hamda ShHTni harbiy blokka aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi tamoyillardan kelib chiqib, O‘zbekistonning ShHT doirasidagi “yumshoq kuch” strategiyasi va “o‘rtamiyona davlat diplomatiyasi” konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqish zarurati dalillangan;

ShHT makonidagi mavjud transport va tranzit sohasidagi yirik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, xususan Afg‘onistonning Markaziy va Janubiy Osiyoni o‘zaro bog‘lovchi, Ozarbayjonning Markaziy Osiyoni Kavkaz orqali Yevropa bilan bog‘lovchi strategik ahamiyati hamda Shanxay hamkorlik tashkilotida kuzatilayotgan jo‘g‘rofiy kengayib borish tendensiyasidan kelib chiqqan holda, Afg‘oniston va Ozarbayjon davlatlarini ShHTga to‘laqonli a‘zo etish taklifi O‘zbekiston milliy manfaatlariga to‘liq mos kelishi isbotlangan;

O‘zbekiston tashqi siyosatida Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining samaradorligini milliy manfaatlarga asoslangan holda oshirish, istiqbolda a‘zo davlatlar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni madaniy diplomatik chora-tadbirlar asosida yumshatish hamda o‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlik ruhini mustahkamlash maqsadida Samarqand shahrida SHHTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkilotini (SCESCO) ta’sis etish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ShHTning Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlash, xavfsizlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashishdagi roli, shuningdek Yevrosiyoda kechayotgan ziddiyatli geosiyosiy jarayonlarga ta’sir qilish omillarini tadqiq etishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nazariy usullar aniqlangan;

Shanxay hamkorlik tashkilotining istiqbolda kengayishi va uni isloh qilish masalalariga nisbatan O‘zbekiston yondashuvlarini tizimli va samarali ilgari surish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonning tuzilmadagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirishni nazarda tutuvchi “ShHTga a‘zo davlatlar o‘rtasida transport-logistika sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitim” hamda “ShHTda o‘rtamiyona davlat diplomatiyasini qo‘llash istiqbollari” konsepsiyasining namunaviy loyihalari tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda xalqaro munosabatlar fanida e’tirof etilgan yondashuv va usullar qo‘llangani, ko‘plab siyosiy adabiyotlar, tahliliy materiallar va rasmiy manbalardan foydalanilgani, tashqi siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va ShHT Kotibiyatining arxiv materiallari kabi birlamchi

manbalarga asoslanilgani, konseptual va qonuniy asosga ega xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli davlat, nodavlat va xalqaro tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining, jumladan, ShHT bilan hamkorligining tarixiylik, xolislik, tizimlilik prinsiplari hamda fanlararo yondashuvlar, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, iqtisodiyot va tarix fanlari usullari asosida yoritilishi tadqiq etilayotgan muammoga oid metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga imkon berishida o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi (TIV), tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari, "aql markazlari", Shanxay hamkorlik tashkilotining Kotibiyati va Aksilterrorchilik tuzilmasining Ijroqo'mi, ShHTning O'zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi, boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan ilmiy izlanishlar, axborot-tahliliy va dasturiy hujjatlarni tayyorlashda, oliy ta'lim muassasalari uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O'zbekiston Respublikasining ShHTga nisbatan strategiyasini belgilab beruvchi milliy-mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosatda mustaqillikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yetakchi tashqi kuch markazlarining raqobatchi manfaatlarini strategik jihatdan mutanosiblashtirish, tashkilotning yagona kuch nazoratiga o'tishiga yo'l qo'ymaslik va tuzilma doirasida teng huquqlilikni saqlash hamda ShHTni harbiy blokka aylanishiga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillardan kelib chiqib, O'zbekistonning ShHT doirasidagi "yumshoq kuch" strategiyasi va "o'rtamiyona davlat diplomatiyasi" konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqish zarurati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ish jarayonida foydalanish uchun qabul qilingan (*TIVning 2024-yil 9-iyuldagi dalolatnomasi*). Natija O'zbekiston-ShHT hamkorligining istiqbollari bag'ishlangan tahliliy va konseptual hujjatlar hamda "yo'l xaritalari"ni tayyorlashda manba sifatida qo'llanilgan.

O'zbekistonning mintaq va xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashda ShHTning keng imkoniyatlaridan samarali foydalanish, Markaziy Osiyoni mazkur tashkilotning mintaqaviy yadrosiga aylantirishga qaratilgan pragmatik tashabbuslari va bunday yondashuv orqali mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq strategiyasi "yangi mintaqaviylik" nazariyasiga ko'ra asoslab berilgani to'g'risidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan mamlakatimizning ShHT kun tartibidagi dolzarb masalalarga nisbatan yondashuvlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2024-yil 24-iyundagi ma'lumotnomasi*). Natija "Samarqand jarayoni: ShHT faoliyatini modernizatsiya qilish istiqbollari" mavzusidagi "davra suhbat" (*2023-yil 14-iyun,*

Toshkent shahri) va ShHT Forumining XIX yig'ilishi (2024-yil 5-iyun, *Toshkent shahri*) materiallarini tayyorlashda manba bo'lib xizmat qilgan.

ShHT makonidagi mavjud transport va tranzit sohasidagi yirik salohiyatini ro'yobga chiqarish, xususan Afg'onistonning Markaziy va Janubiy Osiyoni o'zaro bog'lovchi, Ozarbayjonning Markaziy Osiyoni Kavkaz orqali Yevropa bilan bog'lovchi strategik ahamiyati hamda Shanxay hamkorlik tashkilotida kuzatilayotgan jug'rofiy kengayib borish tendensiyasidan kelib chiqqan holda, Afg'oniston va Ozarbayjon davlatlarini ShHTga to'laqonli a'zo etish taklifi O'zbekiston milliy manfaatlariga to'liq mos kelishiga doir xulosalar Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil Markazi tomonidan xalqaro konferensiyalar, seminarlar va ekspert uchrashuvlari davomida foydalanilgan (*Markazning 2024-yil 9-iyuldagi ma'lumotnomasi*). Natija sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

O'zbekiston tashqi siyosatida Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining samaradorligini milliy manfaatlarga asoslangan holda oshirish, istiqbolda a'zo davlatlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni madaniy diplomatik chora-tadbirlar asosida yumshatish hamda o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik ruhini mustahkamlash maqsadida Samarqand shahrida SHHTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotini (SCESCO) ta'sis etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (*Madaniyat vazirligining 2024-yil 6-iyuldagi dalolatnomasi*). Natija sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda aprobatsiyadan o'tkazilgan (muhokama qilinib, ma'qullangan).

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusiga oid jami 33 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta ilmiy maqola (jumladan, xorijiy impakt-faktorga ega jurnalda 6 ta, milliy jurnallarda 12 ta maqola) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 204 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy hamda amaliy ahamiyati, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, ishning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

“Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ShHTning o'rni va rolini tadqiq etishning nazariy-metodologik jihatlari” deb nomlangan birinchi bobda

xalqaro tashqilotlarning davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi tutgan o'rni va roli, yangi dunyo tartiboti shakllanayotgan bugungi davrda ularning o'zgarayotgan ahamiyati, shuningdek, ShHT faoliyatini o'rganishga doir yetakchi nazariy-konseptual yondashuvlar o'rganilgan.

Bugungi ko'rinishdagi xalqaro tashkilotlardan ko'pchiligining⁸ vatani G'arbiy Yevropa hisoblanib, ularning yuzaga kelish tarixi esa Vena kongressiga (1814-1815 yillar) borib taqaladi. XIX asr davomida ushbu mintaqada iqtisodiy aloqalarning kengayishi ta'sirida iqtisod-xo'jalik sohalarda davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan Reyn daryosi bo'yicha Markaziy Komissiya, Butunjahon telegraf ittifoqi, Butunjahon pochta ittifoqi kabi ilk ko'ptomonlama hamkorlik tuzilmalari shakllanib, ular keyinchalik, Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ixtisoslashgan muassasalariga asos bo'lib xizmat qilgan⁹. Xalqaro tashkilotlarning legitimlashuvi va ularning, xususan, BMTning Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllanishida "jahon hukumati"ni tuzish to'g'risidagi liberal qarashlar mahsuli bo'lgan "Millatlar Ligasi" muhim rol o'ynagan¹⁰. Umuman, xalqaro tashkilotlar G'arb tomonidan XX asrning ikkinchi yarmidan izchil yoyib borilgan liberal tartibot bilan bog'liq ekanligini ta'kidlashadi¹¹.

XX asr oxirlaridan boshlab hozirga qadar davom etayotgan xalqaro tashkilotlar tanazzuli va ularning "ahamiyatsizligi" haqidagi ilmiy va siyosiy munozaralar COVID-19 pandemiyasi (2019-2022 yillar), Ukraina (2022-yil fevralidan e'tiboran), G'azodagi (2023-yil oktyabridan) inqirozlar sabab yangi bosqichga ko'tarildi. Aslida, Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan universal xalqaro tashkilotlar "eski" (liberal) dunyo tartibot tamoyillari va qoidalarini shakllantirishda va hayotga tadbiiq qilishda asosiy mexanizmlar bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bugun ular yaratgan "o'yin qoidalari", shu jumladan, xalqaro huquq normalari qo'pol buzilmoqda (ayniqsa AQSh, Rossiya, qisman Xitoy va boshqa yetakchi davlatlar tomonidan) yoxud shubha ostiga olinmoqda ("revizionist" mamlakatlar tomonidan). Natijada, muayyan mintaqalarda hamkorlikni rivojlantirish yoki strategik masalalar yuzasidan o'xshash manfaatlar va yondashuvlarga ega bo'lgan davlatlar tomonidan mintaqaviy tashkilotlar shakllantirilib, ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti ham mana shunday yangi turdagi mintaqaviy tashkilotlardan hisoblanadi, uni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga doir turli xil va hatto bir-biriga zid yondashuvlar mavjud. Ancha keng yoyilgan va G'arb ilmiy doiralarida shakllangan *geosiyosiy yondashuv*ga ko'ra, ShHT – bu Xitoy va Rossiya tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda "humkronlik qilish" modeli bo'lib, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO)ga qarshi tuzilgan o'ziga xos

⁸ Bu yerda hukumatlararo xalqaro tashkilotlar nazarda tutilmoqda.

⁹ Воронков Л.С. Международные организации: основные причины их возникновения и развития. Вестник МГИМО Университета. – №4(43) - (2015). – С.102-110.

¹⁰ Lloyd E. Ambrosius. Woodrow Wilson, Alliances, and the League of Nations. Published online by Cambridge University Press: 05 July 2017 // <https://doi.org/10.1017/9781316678602>

¹¹ G. John Kenberry. International Relations of the Asia-Pacific. – Vol. 5, – No.2 (2005), – pp.133-152

blok¹². Ushbu maktab vakillari orasida hatto ShHT – bu Xitoyning tarixan qo‘shni mamlakatlarni o‘zining “qaramlari” deb talqin etadigan yondashuvining yangi tarixiy shart-sharoitlarda Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan ko‘rinishi, deb baholovchi fikrlar mavjud¹³.

Normativ yondashuv ham amerikalik va yevropalik ilmiy doiralarda shakllanib, unga muvofiq, ShHT “liberal qadriyatlarni, demokratiya va inson huquqlarini cheklash hamda avtoritar siyosiy rejimlarni himoya qilish”ni maqsad qilgan tuzilma¹⁴.

Rossiyada ham ShHTni ilmiy o‘rganish maktabi ancha rivojlangan bo‘lib (A.V.Lukin, A.I. Nikitin, M.L.Titarenko, Ye.P.Bajanova, Yu.M. Galenovich va boshqalar), uning vakillari ushbu tuzilmani asosan RF va XXR o‘rtasidagi chegara muammolarini hal qilishdan boshlangan strategik hamkorlik natijasi deb bilishadi¹⁵. Rossiyalik ikkinchi guruh olimlar (D.V.Gordienko, Yu.A.Nikitina, D.A.Borisov, Ye.Koldunova va boshqalar) tashkilotni asosan *xavfsizlik tuzilmasi* deya ta’riflab, ShHTning qaror topishi va rivojlanishi Markaziy Osiyodagi siyosiy, harbiy va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqanligiga urg‘u qaratishadi¹⁶.

¹²The Shanghai Cooperation Organization SIPRI Policy Paper No. 17. By Alyson J. K. Bailes, Pál Dunay, Pan Guang and Mikhail Troitskiy; Stephen Aris. Shanghai Cooperation Organisation: an Anti-western Alignment? // CSS Analyses in Security Policy. No. 66, December 2009; Contessi N. China, Russia and the Leadership of the SCO. A Tacit Deal Scenario. // China and Eurasia Forum Quarterly. 2010. Vol. 8. No. 4. P. 101-123.; Scott Andrew McClellan. The Shanghai Cooperation Organization: Should the U.S. be Concerned? (2013). <https://apps.dtic.mil/sti/pdfs/ADA589436.pdf>; Michal Lubina. Russia and China: A political marriage of convenience – stable and successful. Opladen, Berlin & Toronto: Barbara Budrich Publishers, 2017. P.239.

¹³Swanstrom, N.) China and Central Asia: A New Great Game or Traditional Vassal Relations?, Journal of Contemporary China, (2005)14(45):569-584.

¹⁴Thomas Ambrosio. Catching the ‘Shanghai Spirit’: How the Shanghai Cooperation Organization Promotes Authoritarian Norms in Central Asia. // Europe-Asia Studies. Vol. 60, No. 8 (Oct., 2008), pp. 1321-1344; Thomas Ambrosio. The legal framework of the Shanghai Cooperation Organization: An architecture of authoritarianism. May 24, 2016 // <https://fpc.org.uk/sco-architecture-of-authoritarianism/>; Stephen Aris. A new model of Asian regionalism: does the Shanghai Cooperation Organisation have more potential than ASEAN? // Cambridge Review of International Affairs Volume 22, 2009 - Issue 3. Pages 451-467; Nick Bisley. The SCO: an illiberal club of growing global significance. 9 Sep 2022 // <https://www.lowyinstitute.org/the-interpreter/sco-illiberal-club-growing-global-significance>; Stephen Aris. Shanghai Cooperation Organisation: an Anti-western Alignment? // CSS Analyses in Security Policy. No. 66, December 2009; Contessi N. China, Russia and the Leadership of the SCO. A Tacit Deal Scenario. // China and Eurasia Forum Quarterly. 2010. Vol. 8. No. 4. P. 101-123.; Heather Katz. Authoritarian Internationalism, Cybernorms, and the SCO. Conference: American Political Science Association. At: Boston, MA, USA. August 2018 //

https://www.researchgate.net/publication/331310648_Authoritarian_Internationalism_Cybernorms_and_the_SCO

¹⁵А.И.Никитин. Политика безопасности ШОС в условиях меняющихся форм, характера, географии и масштаба традиционных и нетрадиционных вызовов и угроз. Выступление на Форуме ШОС-2023 // https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4484372

М.Л.Титаренко. Россия и Китай: стратегическое партнерство и вызовы времени. М.Л. Титаренко. — МИД «ФОРУМ», 2014. - 224 с. М.Л.Титаренко. Россия и ее азиатские партнеры в глобализирующемся мире. // Стратегическое сотрудничество: проблемы и перспективы / М.Л. Титаренко. - М. : ИД «ФОРУМ», 2012. — 544 с.; Ю.М. Галенович, Россия — Китай: шесть договоров. М., 2003. С.408; Лукин А. В. Россия и ШОС // Аналитические записки. Научно-координационного совета по международным исследованиям МГИМО (У) МИД России. Выпуск 2(4) Февраль 2005. А.В.Лукин. Шанхайская организация сотрудничества : проблемы и перспективы // Международная жизнь. - 2004. - №3. - С. Россия и Китай: четыре века взаимодействия. История, современное состояние и перспективы развития российско-китайских отношений / Под ред. А.В. Лукина. М.: «Весь Мир», 2013. С. 704; Клименко А.Ф. Военные аспекты сотрудничества в формате ШОС. // В сборнике: ДОКЛАДЫ ИДВ РАН - 2011. Москва, 2012. С. 180-194.

¹⁶ Д.В.Гордиенко. Шанхайская организация сотрудничества как площадка для диалога по вопросам региональной безопасности. // Журнал Национальные интересы: приоритеты и безопасность. № 37 (2015) Стр.44-66. Никитина Ю.А. ОДКБ и ШОС как модели взаимодействия в сфере региональной безопасности / Ю.А. Никитина // Индекс безопасности. - 2011. - № 2 (97). - С. 45-53. Д.А.Борисов. Эволюция политики

S.Karaganov, A.V.Kortunov, S.G.Luzyanin, A.V.Lukin, V.I.Yakunin, Ye.I.Safronova, Yu.V.Kulinsev, A.G.Larin, T.F.Bordachev kabi rossiyalik tadqiqotchilar ShHTni Moskva tomonidan ilgari surilayotgan “Katta Yevroosiyo” tashabbusini amalga oshirish mexanizmlaridan biri ekanligini isbotlashga harakat qilishadi¹⁷.

Xitoylik tadqiqotchilarning ShHTga doir qarashlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Birinchidan, ularning fundamental tadqiqotlarida XXRning ShHTga nisbatan strategiyasining konseptual asoslarini ko‘rish mumkin. Xususan, Chjao Xuashen Xitoyning ushbu tashkilotga nisbatan strategiyasida oltita ustuvor yo‘nalishni ko‘rsatadi: “uch yovuzlik”ka (terrorizm, ekstremizm va separatizm) qarshi kurash; chegara hududlarining xavfsizligini ta‘minlash; umummintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shish; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda ishtirok etish; Markaziy Osiyoning Xitoyga nisbatan dushman kayfiyatdagi davlatlar yoxud harbiy bloklar ta‘siriga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik; mintaqa davlatlarining energetika resurslariga yo‘l ochish¹⁸. *Ikkinchidan*, xitoylik tadqiqotchilar XXR tashqi siyosatining konseptual elementlari ShHTning doktrinial-mafkuraviy asoslarini belgilab berganini ta‘kidlashib, bu eng avvalo “Shanxay ruhi” va “uch yovuzlik”ka qarshi kurashga oid konsepsiyalar ShHT Xartiyasida o‘z ifodasini topganligini asoslashadi¹⁹. *Uchinchidan*, keyingi yillarda Xitoyda *ShHTni*

безопасности Шанхайской организации сотрудничества (1996–2010 гг.) : автореф. ... дисс. канд. истор. наук. - Томск: Томский государственный университет, 2011. - 27 с

¹⁷Караганов С. От поворота на Восток к Большой Евразии. // Журнал Международная жизнь. 2017 (5); Кортунов А.В. ШОС - камень, отвергнутый строителями новой Евразии? 14.05.2018. <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/shos-kamen-otvergnuty-stroitelnyami-novoy-evrazii/>; Лузянин С.Г. Россия – Китай: формирование обновленного мира: монография /отв. ред. академик В.С. Мясников. – М.: Издательство «Весь Мир», 2018. 328 с.; Лукин А.В., Якунин В.И. Пути и пояса Евразии. Национальные и международные проекты развития на Евразийском пространстве и перспективы их сопряжения. – М.: Весь Мир, 2019. – 416 с.; В.А.Лукин. ШОС могла бы сыграть важную роль в сфере сопряжения Экономического пояса Шелкового пути и ЕАЭС. Агентство Синхуа. 2018-06-05.; Сафронова Е.И. Российско-китайский диалог и «Большое евразийское партнерство»: новая идеология отношений? // Проблемы Дальнего Востока. 2019. № 4. – С. 174- 178; Ларин А.Г. Экономический пояс Шелкового пути»: экономическое содержание, структура, идеология // Новый Шелковый путь и его значение для России / ИДВ РАН. М.: ДеЛи плюс. 2016. С. 38–57; Кулинцев Ю.В., Сюцзэ Т. Трансазиатско-европейское экономическое партнерство как вариант сопряжения ЕАЭС и ЭПШП // Проблемы Дальнего Востока. – 2018. № 2. – С. 89-98.; Кулинцев Ю.В., Петровский В.Е., Ларионова А., Чай Юй (КНР), Ван Чэньсин (КНР), Цзян Цзин (КНР). Сопряжение ЕАЭС и ИПП: проблемы и перспективы // Аналитическая записка 29/2020. РСМД, КАОН. 2020. – С. 1-15.; Кулинцев Ю.В. Перспективные векторы развития ШОС в контексте строительства Большого евразийского партнерства // Евразийское пространство: новые векторы и приоритеты / отв.ред.-сост. В.А.Матвеев. – М.: ИДВ РАН, 2020. – С. 43-53; Т.В. Бордачев, А.В. Казакова, А.С. Скриба. Институты для мира в Евразии. // Журнал “Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика”. 2016. Т. 11. № 2. С. 24–39.; Бордачев Т. В., Пятачкова А. С. Концепция «Большой Евразии» в повороте России на Восток. // Журнал “Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика”, 2018. Т. 13. № 3. С. 33–51.

¹⁸ Чжао Хуашэн.Китай, Центральная Азия и Шанхайская организация сотрудничества // Московский центр Карнеги. Рабочие материалы. 2005. №5. С.50.

¹⁹Пань Гуан. Что такое "шанхайский дух" 27.11.2008. <http://www.infoshos.ru/>; Гао Ханьсюнь. Выгода и равенство. Почему теория "Шанхайского духа" обладает мощной жизненной силой. <https://rg.ru/2020/11/08/pochemu-teoriia-shanhajskogo-duha-obladaet-moshchnoj-zhiznennoj-siloi.html>; The undying importance of the ‘Shanghai Spirit’. By Zhang Xin. https://news.cgtn.com/news/3d3d774d3263444f77457a6333566d54/share_p.html ; Пан Дэлэн. Роль ШОС во внешнеполитической стратегии Китая. 01.10.2020. <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/rol-shos-vo-vneshnepoliticheskoy-strategii-kitay/>

“*xalqaro munosabatlarda yangi model*” namunasi²⁰ sifatida talqin qilish va buni ilmiy jihatdan asoslashga urinishlar kuzatiladi. *To‘rtinchidan*, yana bir guruh xitoylik ekspertlar ShHTni XRRning “Bir belbog‘, bir yo‘l” tashabbusini tadbqiq etish vositasi va shundan kelib chiqib, ikkala platformani o‘zaro “uyg‘unlashtirish” zaruratini isbotlashga harakat qiladi²¹.

ShHTning yangi a‘zolari bo‘lgan Hindiston, Pokiston va Eron olimlarining yondashuvlari ham ilmiy-amaliy jihatdan muayyan qiziqish uyg‘otadi. *Hindistonlik tadqiqotchilar* dastlab ShHTga nisbatan ancha ijobiy pozitsiyada bo‘lib, uni Yevroosiyodagi istiqbolli tashkilot, deb baholashgan²². Shuningdek, mazkur tuzilma afg‘on muammosi, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash masalalarida hamkorlik uchun muqobil platforma sifatida ham qiziqish uyg‘otgan²³. Lekin, keyingi paytlarda, hindistonlik ekspertlar, shu jumladan, sobiq diplomatlar orasida ShHTga nisbatan Xitoy “nazoratidagi mexanizm” sifatida qarash kuchaymoqda. Ular ShHT asosan rasmiy Pekinning Markaziy Osiyo va Pokistonda Hindiston manfaatlariga qarshi bo‘lgan siyosatini hayotga tadbqiq etuvchi vosita, deb talqin qilishmoqda²⁴. Fikrimizcha, hindistonlik tashkilotga nisbatan bunday salbiy qarashlar oxirgi paytda Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi ikki tomonlama ziddiyat va raqobatning kuchayishi, shuningdek, ShHTning yetakchi axolari – Rossiya va XRRning G‘arb bilan aloqalarining keskin yomonlashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Pokiston ilmiy-tahliliy doiralarida ShHTga nisbatan yondashuv jiddiy o‘zgarmagan. Ushbu mamlakatning yetakchi “aql markazlari”ning tegishli materiallarida Pokistonning ShHT strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘p tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirish, Afg‘oniston muammosini hal etishda ShHT Mintaqaviy aksilterrorchilik tuzilmasi (MATT) salohiyatidan foydalanish, Rossiya va Xitoy bilan mintaqaviy ahamiyatga ega strategik masalalarda o‘zaro muloqotni mustahkamlash hamda Hindistonning ushbu makondagi siyosatini kuzatib borish kabi masalalar markaziy o‘rin tutishi

²⁰SCO: A New Model for Close, Inclusive International Relations. View of Wang Xiaoquan, Executive deputy director, Secretary General Belt and Road Research Center under Chinese Academy of Social Sciences. Выступление Президента Китайской академии общественных наук Се Фучжанинг в международной видеоконференции “ШОС и региональное управление: новые идеи и подходы”. https://russiancouncil.ru/news/eksperty-iz-rossii-i-kitaya-obsudili-rol-shos-v-regionalnom-upravlenii/?sphrase_id=73178665#detail

²¹ Н. Лу, Ш. Лу, М. Хуан. Сотрудничество Китая с Россией и странами Центральной Азии в формате «Одного пояса, одного пути» как фактор развития ШОС. // Вестник международных организаций. Т. 13. №3. С. 113–127 Ли. Сянь. Проблемы экономического сотрудничества ШОС, «Экономического пояса Шелкового пути» и Евразийского экономического союза. // Журнал “Международная аналитика”. № 2 (2015). С. 57-60.

²² Meena Singh Roy. India and the SCO: A Vision for Expanding New Delhi’s Engagement December 4, 2019. <https://russiancouncil.ru/en/analytics-and-comments/analytics/india-and-the-sco-a-vision-for-expanding-new-delhi-s-engagement/>

²³ Meena Singh Roy. India and the SCO: A Vision for Expanding New Delhi’s Engagement December 4, 2019. <https://russiancouncil.ru/en/analytics-and-comments/analytics/india-and-the-sco-a-vision-for-expanding-new-delhi-s-engagement/>

²⁴ View: India’s assertive and pragmatic role in Shanghai Cooperation Organization. By Dr. Nalin Kumar Mohapatra. Dec 19, 2020. https://economictimes.indiatimes.com/news/defence/view-indias-assertive-and-pragmatic-role-in-shanghai-cooperation-organisation/articleshow/79811313.cms?utm_source=contentofinterest&utm_medium=text&utm_campaign=cppst

kerakligi, tuzilma faoliyatini mamlakat oldida turgan siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish zarurati ko‘rsatiladi²⁵.

Eronlik tadqiqotchilar yaqin-yaqingacha ShHTni “tashqi gegemonlik”ka, ya’ni AQShning Yevroosiyoda, jumladan, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy hukmronligiga qarshi turishga qodir tuzilma sifatida baholab kelishgan²⁶. Shuningdek, ularning tadqiqotlarida tashkilot Eron uchun yana bir muhim voqe‘lik – uning xalqaro izolyatsiyadan chiqishi uchun muhim omil ekanligiga e’tibor qaratishadi. Yana bir guruh eronlik tadqiqotchilar esa ushbu mamlakatning ShHT bilan hamkorligi – bu real siyosat (realpolitik) mahsuli, deb bilishadi²⁷.

Markaziy Osiyo davlatlar ichida *Qozog‘iston* ilmiy-tadqiqot markazlarining izlanishlari mazmuni va miqdori jihatdan ancha keng bo‘lib, ularda ShHT nafaqat mintaqaviy tuzilma sifatida, balki uning Markaziy Osiyodagi kechayotgan geosiyosiy jarayonlarda tutgan roli va o‘rni, Xitoy va Rossiya o‘rtasidagi raqobat va buning mintaqaga ta’siri, ShHTning BBBY va YeOII bilan mutanosibliги kabi jihatlar o‘rganilgan²⁸.

Qirg‘izistonlik olimlar ShHTni integratsiyaviy tuzilma sifatida uning iqtisodiy salohiyatini, shuningdek Qirg‘iziston va XXR o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishida tashkilotning tutgan o‘rni va rolini o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratishgan²⁹.

²⁵ Rizwan Zeb. “Pakistan’s Bid for SCO Membership: Prospects and Pitfalls,” Central Asia Caucasus Analyst, July 26 2006. <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/10982-analytical-articles-caci-analyst-2006-7-26-art-10982.html>; Rizwan Zeb. Pakistan and the Shanghai Cooperation Organization. // The China And Eurasia Forum Quarterly. Volume 4, No. 4 November 2006: 51-60; Dr. Zahid Ali Khan. Pakistan and shanghai cooperation organization. Ipri // Journal XIII, to. 1 (winter 2013): 57-76.; Dr. Muhammad Saif ur Rehman. Significance Of Shanghai Cooperation Organization – Pakistan’s Perspective. //b Margalla Papers 2014: 65-84; Sarwat Rauf. Shanghai Cooperation Organization (SCO): Opportunities for Pakistan. NUST Journal of International Peace and Stability. 2019 - Volume 2 (Issue 1): 15-26. <https://njips.nust.edu.pk/index.php/njips/article/view/2017https://njips.nust.edu.pk/index.php/njips/article/view/2017>; Mir Sherbaz Khetran. SCO Membership and Pakistan: Prospects of Relations with Central Asia. //Strategic Studies. Vol.39, No2. pp.83-95. http://issi.org.pk/wp-content/uploads/2019/07/6-SS_Mir_Sherbaz_Khetran_No-2_2019.pdf

²⁶ Ali G. Dizboni, Amir M. Haji-Yousefi, Amir M Raji-Yousefi and Greg Mcpherson. Iran And The Shanghai Cooperation Organisation. World Affairs: The Journal of International Issues Vol. 14, No. 2 (Summer 2010 (April-June)), pp. 150-166.

²⁷ Shahram Akbarzadeh. Iran and the Shanghai Cooperation Organization: Ideology and Realpolitik in Iranian Foreign Policy July 2014 Australian Journal Of International Affairs 69(1). DOI:10.1080/10357718.2014.934195.

²⁸ Султанов Б.К. Сотрудничество РК и ШОС по обеспечению безопасности в Центральной Азии. Материалы международной научно-практической конференции «ШОС и проблемы безопасности сотрудничества в Центральной Азии». (2008, Алматы), 15 апреля. - С. 17—22; Турарбекова, Р. ШОС и проблемы безопасности в Центральной Азии на рубеже столетий / Р. Турарбекова // Китай в современном мире: сб. науч. тр. Вып. 8. Минск: Издат. центр БГУ, 2010. С. 95-100; Галямова В.Ф. ШОС как инструмент обеспечения безопасности в Центральной Азии: перспективы организации в свете результатов саммита // Analytic. 2007. 8.; Каукуенов А.С. Политика Китая в Шанхайской организации сотрудничества // Центральная Азия и Кавказ 2007 № 3; Тусунбаева Г.А., Шаймергенов Т.Г. Роль международных структур в обеспечении региональной безопасности и Центральной Азии: перспективы для ШОС и НАТО Алматы, 2005; Г. К. Искакова. Взаимодействие и сотрудничество государств - членов ШОС в контексте региональной безопасности: уроки, вызовы и перспективы. // // Журнал “Экономика региона”. С.237-242.; Мухамеджанова Д.Ш. Интеграционные процессы в Евразии: ЕАЭС и ШОС. // Журнал: Россия и новые государства Евразии. №3 (28) 2015. С.: 27-33.

²⁹ Джекшенкулов А.Д., Внешняя политика стран Центральной Азии. // Журнал «Вестник КРСУ», 2015 год, Том 15, № 12, С: 79-84.; Салиев, А. А. Формирование системы региональной безопасности в Центральной Азии / А. А. Салиев, Э. Е. Усубалиев // Северо-Восточная и Центральная Азия: динамика международных и межрегиональных взаимодействий: учеб. пособие / под ред. А. Д. Воскресенского. М.: МГУ; Рос. полит.

Tojikistonlik tadqiqotchilar ShHTni ushbu mamlakatning tashqi siyosatida tutgan oʻrni, Tojikiston-Xitoy munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga qoʻshgan hissasi, uning koʻp tomonlama, xususan, iqtisodiy va transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi salohiyatini oʻrgangan³⁰. ShHT Bosh kotibi lavozimida faoliyat koʻrsatgan diplomat va olim R.Alimov asarlarida tuzilmaning evolyusiyasi, huquqiy asoslari, Yevroosiyoda kechayotgan jarayonlarda tutgan oʻrni ancha keng ochib berilgan³¹.

Oʻzbekistonda ham ShHTni oʻrganishga oid qator tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, ularda mamlakatimizning tashkilot bilan aloqalari, uning faoliyatining iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamda transport sohasidagi hamkorligi masalalari oʻrganib kelingan³². Tuzilmaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlardagi va mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash tizimida tutgan oʻrni A.Xodjaev, F.Tolipov, V.Paramonov, R.Alimov, S.Ubaydullayeva³³ asarlarida va maqolalarida keng

энцикл. (РОССПЭН), 2004. С. 455-458.; Суянобаев М. Ожидания и перспективы ШОС.17.08.2007www.tazar.kg.; Шерьязданова К. ШОС: Проблемы и перспективы развития. www.pbussr.ru 24.07.2007; Н.Т.Момунов. Новые экономические возможности и вызовы на пространстве ШОС // Журнал Международная аналитика, № 2 (2015). С.62-64.; Омурова Ж.О. Взаимоотношения Кыргызской Республики с КНР в рамках ШОС // Востоковедные исследования на Алтае. 2014, №8. С. 17-24; Омурова Ж.О. Кыргызстан в интеграционном развитии Шанхайской Организации Сотрудничества // Журнал “Актуальные проблемы социально-гуманитарного и научно-технического знания”. №3 (19) 2019 . С.: 62-65.; Салиев, А. А. Усубалиев, Э. Е. Формирование системы региональной безопасности в Центральной Азии // Северо-Восточная и Центральная Азия: динамика международных и межрегиональных взаимодействий: Учебное пособие / под ред. А. Д. Воскресенского. - М.: РОССПЭН, 2004. - С. 460.; Усубалиев Э.Е., Мураталиева З.Т., Маликов К.К., Молдобаев А.Э. «Китайский фактор» во внешней политике Кыргызстана: двусторонний и региональный уровни // Под общей редакцией к.п.н., Салиева А.Л. Бишкек, 2008. 187 с

³⁰ Холикназаров Х. Деятельность Республики Таджикистан в процессе становления и развития ШОС - Душанбе, 2014.- 384 с.; Холикназаров Х. Таджикистан – ШОС: стабильность и процветание/Х.Холикназаров. – Душанбе, 2013.- 248с.; Холикназаров Х. Перспективы ШОС по афганскому урегулированию // www.geopolitika.ru; Ризоев Б., Назаров А. Перспективы развития Шанхайской организации сотрудничества в системе обеспечения региональной и национальной безопасности стран Центральной Азии. // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. №4(44) 2010.; Искандаров. А.Безопасность и интеграция в Центральной Азии: роль ОДКБ и ШОС. Журнал “Центральная Азия и Кавказ” Том 16 Выпуск 2 2013. С.18-28. .Муминова. Республика Таджикистан и экономическое сотрудничество в рамках ШОС. // Журнал “Международная аналитика”. 2015;(2). С: 61-62.; Назаров Т. ШОС оказалась живым организмом // ТАСС. Салимов Ф. Таджикистан в региональной политике // Международные процессы. – 2015. – Т. 13, № 1

³¹ Алимов Р. Шанхайская организация сотрудничества: глобальный профиль в международных отношениях. – М.: Весь мир, 2018. – 400 с.

³² Бекмуратов И.Н. Перспективы развития ШОС: взгляд из Узбекистана // Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 21. Вып. 11. С. 11-16.; Пулатов Р.А., Ражабов А.И. Сотрудничество республики Узбекистан и ШОС в борьбе с религиозным экстремизмом и международным терроризмом // Современные научные исследования и инновации. 2018. № 2. С. 46.; Мамаева М.Э., Шермухамедов О.А. Торгово-экономическое сотрудничество ШОС как механизм укрепления всеобщей безопасности.- статья. // Международная научно-практическая конференция «IV Маньякинские Чтения: Проблемы и обеспечения национальной безопасности: прошлое, настоящие, будущее» (70-летие Победы и 70-летие окончания Второй Мировой войны посвящается). Омский институт (филиал) ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова», Апрель 2-3, 2015г.; Расулев А.Ф. Перспективы социально-экономического сотрудничества стран — членов ШОС в условиях глобализации. // Журнал “Экономика региона” №4/2012. С.: 202-208; The SCO is not a platform for harmony or discord per se, rather it is what the members make of it. By Jaloliddin Usmanov. June 26, 2018 <https://thediplomat.com/2018/06/the-shanghai-cooperation-organization-harmony-or-discord>.

³³ Ходжаев А.Х. Китайский фактор в Центральной Азии (история и современность). -Т.: Фан, 2020; Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов/Central Asia: common interests. - Т.:Шарк, 2005; Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации в Центральной Азии. -Т., 2005 Т. Фан – 2005. С.153.; Толипов Ф. Организация Центрально-Азиатского сотрудничества в Шанхайской организации сотрудничества - //Ситуация в Центральной Азии и Шанхайская организация сотрудничества: // Тез.докл. межд. конф.-2004 // Китай (ШИМИ), 2004. - С. 285-305.; Толипов

yoritilgan. Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategiyasi doirasida ShHTning roli yetuk xitoyshunos A.Xodjaev tomonidan batafsil ochib berilgan. Yana bir taniqli xitoyshunos, tarix fanlari doktori Sh.Shozamonov tashkilot faoliyati O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari doirasida o‘rgangan. Siyosatshunos F.Tolipov geoyosiy yondashuvga tayangan holda, ShHTni “a’zolari noteng bo‘lgan tuzilma” deb ta’riflaydi³⁴. Tarixchi olim M.Rahimov tadqiqotlarida, shuningdek I.Bekmuratov, M.Sharipov, A.Muxamedjanov siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyalarida³⁵ ShHTning institusional rivojlanishi hamda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi faoliyati bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Siyosatshunos olim, professor S.E.Sultanova va tarix fanlari doktori D.B.Sayfullaev Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi va madaniy diplomatiyasi sohasidagi faoliyatini tadqiq qilishgan³⁶. ShHTning iqtisodiy sohadagi faoliyati bilan bog‘liq masalalar O.Sheralievning ilmiy ishida ko‘rib chiqilgan³⁷.

Biz ShHTni Sovuq urushdan keyin shakllangan mintaqaviy tashkilotlar faoliyatini ilmiy o‘rganishda ancha ommaviy bo‘lgan “yangi mintaqaviylik” nazariyasi doirasida o‘rganishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. *Birinchi*dan, ShHT “mohiyati”ni to‘liq tushunish uchun yaqin davrga qadar xalqaro munosabatlarni talqin qilishda “universal” deb umum e’tirof etib kelingan realizm, liberalizm, funksionalizm va hatto konstruktivizm nazariyalari tomonidan yaratilgan uslublarni qo‘llash kifoya bo‘lmaydi. Zero, ShHT muayyan mintaqaga mansublik, siyosiy-mafkuraviy yoki madaniy o‘xshashlik yoki iqtisodiy taraqqiyot

Ф. К вопросу о самостоятельности роли организации Центральноазиатского сотрудничества в рамках ШОС. // Ж.Центральная Азия и Кавказ., 2004. - №3(33). – С.169-180.; Парамонов В.В. Китайский экономический экспресс в центре Евразии: новая угроза или исторический шанс? Барнаул (Россия), 2010 год, 160с.; Парамонов, О. Столповский. ШОС как механизм взаимодействия России и государств Центральной Азии в сфере безопасности.; Қ.Жўраев. Ўзбекистон - ШХТ: тинчлик ва барқарор тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик. http://www.adolatgzt.uz/news_latest/glavnaya-novosty/; S.Ubaydullayeva. Markaziy Osiyo xavfsizligi kompleks o‘zaro bog‘liqlik tizimida ShHT omilining ayrim jihatlari // Oriental Journal of Education. DOI:<https://doi.org/10.37547/supsci-oje-04-03-26>. Published:24.04.24 Pp.:185-191.

³⁴ Толипов Ф. К вопросу о самостоятельности роли организации Центральноазиатского сотрудничества в рамках ШОС. // Ж.Центральная Азия и Кавказ., 2004. - №3(33). – С.169-180

³⁵ Mirzokhid Rakhimov. The Institutional and Political Transformation of the SCO in the Context of Geopolitical Changes in Central Asia (Part 2). The Shanghai Cooperation Organization and Eurasian Geopolitics: New Directions, Perspectives, and Challenges. Michael Fredholm. NIAS Press, 2013, 324 pp.; Бекмуратов И.Н. Деятельность Шанхайской организации сотрудничества и процесс ее институционализации / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2006; Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг ҳамияти/сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация авто реферати. Т., 2007.; Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010; МА.Рахимов. Современные многосторонние отношения в Центральной Азии. Т., Издательство “Фан”. 2020 – 224 с.

³⁶ Султанова Э.С. Повышение роли женщин-лидеров в обеспечении устойчивого развития. Сборник статей, подготовленный на основе материалов Ташкентского Форума женщин-лидеров стран ШОС. 2021 Ташкент. Отв. редактор д.п.н. Султанова Э.С.; Сайфуллаев Д.Б. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ. Тошкент – 2020. 97 б.,

³⁷ О.Шералиев. Перспективы участия Узбекистана в процессах экономического сотрудничества и взаимодействия в рамках ШОС. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc). Ташкент-2024.

yo‘lidagi umumiylik negizida yuzaga kelmagan³⁸. *Ikkinchidan*, ShHT – o‘ziga xos yangi turdagi murakkab mintaqaviy tashkilot: u Yevropa Ittifoqi kabi “iqtisodiy integratsiya” modeli ham, NATO yoki KXShT kabi harbiy-siyosiy blok ham emas. *Uchinchidan*, tashkilot kengayishda va rivojlanishda davom etmoqda. Avval uning faoliyati asosan Markaziy Osiyo bilan cheklangan bo‘lsa, bugun Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq hududlaridagi mamlakatlarniyam qamrab olgan. Ya’ni, uning faoliyatida muayyan mintaqaviy umumiylikni ko‘rish qiyin.

“O‘zbekiston Respublikasining ShHTga nisbatan strategiyasi: konseptual asoslari va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan ikkinchi bobda mazkur tashkilotning rivojlanish boschiqlari va bu jarayonlarda O‘zbekistonning ishtirokini, shuningdek, mamlakatimizning tuzilmaga nisbatan strategiyasini belgilab bergan konseptual asoslar va tamoyillarni ochib berishga bag‘ishlangan.

ShHT rasman 2001-yilda tashkil topganligiga qaramasdan, uning siyosiy, huquqiy va institusional negizlari, sobiq SSSR va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi murakkab aloqalarning 1960-1990 yillar davridagi tarixiga borib taqalishi ta’kidlanadi³⁹. ShHT shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari atrofidagi munozaralardan qat’iy nazar, u “Shanxay beshligi” (Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Xitoy ishtirokida 1996-yilda tuzilgan) negizida rivojlanganligi aksariyat ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. O‘zbekiston, Xitoy bilan umumiy chegaralarga ega emasligi sabab, “Shanxay beshligi”da ishtirok etmagan, lekin ShHTning ta’sischi davlatlaridan biri sifatida uning huquqiy va institusional asoslarini shakllantirishda va rivojlantirishda faol ishtirok etib kelgan. Bu borada mamlakatimizning eng muhim hissasi, jumladan, quyidagilarda o‘z ifodasi topgan:

- ShHT Xartiyasiga uning “uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmaganligi” to‘g‘risidagi tamoyilning kiritilishi;

- ShHT MATTning Toshkent shahrida joylashtirilishi va uning faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi;

- ShHT tarkibida xavfsizlik masalalari bo‘yicha maxsus mexanizm – Xavfsizlik kengashlari kotiblarining uchrashuvining ta’sis etilishi;

- tashkilotning ichki faoliyatini belgilab berishga qaratilgan normativ hujjat – ShHT protseduralar tartibining ishlab chiqilishi;

- ShHT faoliyatida transport-tranzit sohasida hamkorlikni rivojlantirishdashi jonbozligi; aynan O‘zbekiston taklifi bilan tashkilotning transport-tranzit salohiyatini rivojlantirish ishchi guruhi, temir yo‘l idoralari rahbarlarining uchrashuvlari, ShHT transport forumi kabi mexanizmlar va hamkorlik formatlari ta’sis etilgan;

- tashkilot doirasida “xalq diplomatiyasi” institutini rivojlantirishdagi faol sa’y-harakatlari. Xususan, 2018-yilda O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazining ochilishi, 2022-yilda “ShHTning ezgu niyat elchisi” institutining ta’sis etilishi shular jumlasidan;

³⁸ Allison, R., Jonson L. (editor) *Central Asian Security: The New International Context.* // Royal Institute of International Affairs, Brookings Institution Press, Washington. 2001.

³⁹Qaranag: Тараканова Т.С., Погодин С.Н. Россия и Китай в Шанхайской организации сотрудничества: проблемы политико-экономического взаимодействия. Санкт-Петербург: Издательство Политехнического университета, 2018.144 с.

- ShHTda savdo-iqtisodiy va tarmoqlararo hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar va b.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasining tashkilot bilan hamkorligi doim ham ravon bo‘lmagan. Masalan, 2001-2016 yillarda mamlakatimiz ShHT doirasidagi xavfsizlik va harbiy sohalardagi, shuningdek gumanitar yo‘nalishdagi ayrim dasturlar va tadbirlarda ishtirok etmagan.

Buning asl sabablarini O‘zbekistonning ShHTga nisbatan strategiyasini belgilab bergan *konseptual tamoyillarda* ko‘rish mumkin. Bu tamoyillar qandaydir maxsus normativ yoki siyosiy hujjatlarda biriktirilmagan bo‘lsa-da, ular mamlakat rahbariyatining tashkilot sammitlaridagi nutqlarida, uning kun tartibidagi ustuvor masalalarga bo‘lgan yondashuvlarida, tashabbuslarida va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda, dissertatsiyani tayyorlash davomida O‘zbekiston Respublikasining ShHTga nisbatan strategiyasi asosiy quyidagi tamoyillarga tayanishi asoslab berilgan:

Birinchisi - *milliy va mintaqaviy xavfsizlikni, tashqi siyosatda mustaqillikni ta'minlash*. O‘zbekiston tashqi kuch markazlari yetakchiligidagi ko‘ptomonlama tashkilotlarga nisbatan har doim “ohistalik” bilan munosabatda bo‘lgan, ayniqsa mustaqillikning dastlabki davrida respublika rahbariyati yirik davlatlar ta’siriga tushib qolishni istamagan. Ammo, 1990-yillarning oxiriga kelib mintaqa xavfsizligi sohasidagi vaziyat ancha keskin edi. Jumladan, 1998-yilda “Tolibon” harakatining Afg‘onistonda hokimiyat tepasiga kelishi va bu mamlakat hududida “Al-Qoida” va Markaziy Osiyoda islomiy davlat qurishni maqsad qilgan “O‘zbekiston islom harakati” kabi xalqaro terrorchi guruhlarning faollashuvi respublikaning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga e’tiborini yanada kuchaytirdi. Rossiya va Xitoyni o‘z tarkibiga olgan ShHT misolida O‘zbekiston rahbariyati mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan mexanizmni ko‘rgan, deyish mumkin⁴⁰. Shuningdek, ShHT – bu Moskvaning to‘liq nazoratidagi Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) emas, balki Xitoy va Rossiyaning o‘zaro raqobati bilan “o‘z-o‘zini tiyib turuvchi” tuzilma ekanligidan ham kelib chiqilgan. Shu tariqa, tashkilotga a’zolik O‘zbekistonga mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash bilan bir qatorda, mustaqil tashqi siyosiy faoliyat yuritish imkoniyatlarini saqlab qolgan.

Ikkinchisi – *Markaziy Osiyoda yetakchi tashqi kuch markazlarining raqobatchi manfaatlarini strategik jihatdan mutanosiblashtirib turish*, ularning hech birining mintaqa ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymaslik va shu orqali ko‘p yo‘nalishli tashqi siyosiy strategiyani amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirish. O‘zbekistonning ShHTdagi ishtirokida mazkur tamoyil ikki jihatdan namoyon bo‘lgan. Bir tomondan – Rossiya va Xitoyning mintaqadagi geostrategik manfaatlarini tashkilot yordamida mutanosiblashtirib turish bo‘lsa, ikkinchi tomondan – ShHT orqali AQSh va G‘arbning Markaziy Osiyoga nisbatan “geosiyosiy tazyiqlarini” cheklab turish.

⁴⁰Alyson J. K. Bailes, Pál Dunay, Pan Guang and Mikhail Troitskiy. The Shanghai Cooperation Organization SIPRI Policy Paper No. 17. Stockholm International Peace Research Institute // <https://www.files.ethz.ch/isn/31817/Policypaper17.pdf>

O‘zbekistonning tashkilot faoliyatiga nisbatan uchinchi muhim tamoyili sifatida *ShHT ichida bitta davlatning haddan tashqari kuchayib ketishi va buning natijasida tashkilot yagona kuch nazoratiga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik va umuman tuzilma doirasida teng huquqlik va barcha a‘zolar manfaatlarini hurmat qilishni ta‘minlashdan iborat bo‘lib kelgan*, deyish mumkin. Mazkur tamoyilni amalga oshirishda o‘zbek diplomatiyasi tashkilotda barcha qarorlarni konsensus asosida qabul qilish tartibidan unumli foydalanib kelgan. Bu, o‘z navbatida, ShHTni respublika manfaatlariga zid bo‘lgan ssenariylar (masalan, uni siyosiy yoki harbiy-siyosiy blokka aylantirishga urinishlar) bo‘yicha rivojlanishining oldini olgan.

Barcha qarorlarni konsensus asosida qaror qabul qilish tartibi o‘z navbatida O‘zbekistonning ShHT doirasidagi to‘rtinchi tamoyil – *tashkilotni harbiy blokka aylantirmaslikka* bo‘lgan say‘-harakatlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. “ShHTning uchinchi davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmaganligi” to‘g‘risidagi muhim asos O‘zbekiston taklifi ning ShHT Xartiyasiga kiritilganligi bejiz emas.

“O‘zbekiston Respublikasi va ShHT hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlagan uchinchi bobda mamlakatimizning ushbu tashkilot bilan mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash, savdo-iqtisodiy, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorligi tahlil qilingan, erishilgan yutuqlar, shuningdek mavjud kamchiliklar aniqlangan.

ShHTning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi roli va o‘rni yuzasidan turli xil fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar uni “mintaqadagi barqarorlik kafolati”, deb hisoblashsa⁴¹, boshqalar, xususan g‘arblik tadqiqotchilar tashkilot mintaqaviy xavfsizlik tuzilmasi sifatida qaror topa olmaganligini qayd etishadi. Bunga misol tariqasida ShHT doirasida maxsus xavfsizlikni ta‘minlash kuchlarining mavjud emasligi, favqulodda vaziyatlar, tabiiy va ekologik inqirozlarga qarshi kurash, noqonuniy migratsiya va qochoqlarga daxldor muammolarni tezkor hal qilishni nazarda tutuvchi amaliy mexanizmlarning shakllanmaganligi, siyosiy faoliyatida esa - Afg‘oniston muammosini hal qilishga qodir emasligini ko‘rsatishadi⁴².

Shanxay hamkorlik tashkiloti azaldan va o‘z mohiyatiga ko‘ra tom ma‘noda xavfsizlik yoki harbiy hamkorlik tashkiloti emas. Tashkilotning Markaziy Osiyodagi barqarorlashtiruvchi rolini quyidagilarda kengroq ochib berish mumkin: (1) ShHTning ta‘sis etilishi va faoliyati o‘sha davrla mintaqaning yosh davlatlari uchun eng katta xavf solgan terrorizm va ekstremizm tahdidlariga Xitoy va

⁴¹ Ван Чаоцин. Дееспособность при сотрудничестве в области безопасности в рамках ШОС. // Журнал «Теория и практика людского развития». С.:54-59.; Алимов Р.К. Шанхайская организация сотрудничества: становление, развитие, перспективы. 2017 г. М.: Издательство «Весь Мир». 336 с. С.78-79.

⁴²Boland, Julie, “Ten Years of the Shanghai Cooperation Organization: A Lost Decade? A Partner for the U.S.?” // The Brookings Institution, 21st Century Defense Initiative Policy Paper, June 20, 2011.; Richard Weitz. Afghanistan, Not New Members, Will Determine SCO’s Relevance. // World Politics Review. July 14, 2015.<https://www.worldpoliticsreview.com/articles/16223/afghanistan-not-new-members-will-determine-sco-s-relevance>; Richard Weitz. Afghanistan, Not New Members, Will Determine SCO’s Relevance. // World Politics Review. July 14, 2015.<https://www.worldpoliticsreview.com/articles/16223/afghanistan-not-new-members-will-determine-sco-s-relevance>; SCO Fails to Turn Into an “Eastern NATO”. Eurasia Daily Monitor Volume: 8 Issue: 116. By: Pavel Felgenhauer.

<https://jamestown.org/program/sco-fails-to-turn-into-an-eastern-nato/>

Rossiya yordamida kurashishning konseptual asoslari (shu sohalarda qabul qilingan shartnomalar) va amaliy mexanizmlar (ShHTning Toshkentda joylashgan Mintaqaviy aksilterrorchilik tuzilmasi) shakllantirilgan; (2) yuqorida ham zikr etilganidek, ShHTning tuzilishi mintaqaning qaysidir yirik tashqi kuchning (davlat yoki blokning) to‘liq nazoratiga o‘tishiga yo‘l qo‘ymadi; (3) Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kuchaytirishdan eng katta manfaatdor bo‘lgan ikki katta davlat – Rossiya va Xitoyning “raqobatchi” manfaatlarini “hamkorlik” sari yo‘naltirib turgan; (4) mintaqaviy xavfsizlikning ustuvor jihatlari yuzasidan tashkilot ichida erishilgan o‘xshash va umumiy yondashuvlar uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qilib, ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlik uchun muayyan shart-sharoit yaratib bergan.

ShHTning xavfsizlik sohasidagi mana shunday “mavhumroq” yondashuvlari O‘zbekiston milliy manfaatlariga, jumladan, Markaziy Osiyoda strategik barqarorlikni ta’minlashga nisbatan qarashlariga mos kelgan.

Shu bilan birga biz ShHT Markaziy Osiyoda faqat ijobiy rol o‘ynagan, degan fikrdan yiroqdamiz. Uning ta’sis qilinishi va faoliyati, xuddi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqidek, Markaziy Osiyoda tashqi kuchlarning ishtirokisiz “sof mintaqaviy integratsiya” tuzilmasining shakllanishiga qaysidir jihatdan halaqit qilgan, deyish mumkin.

Xavfsizlik va siyosiy muloqotdan tashqari, O‘zbekiston-ShHT munosabatlari boshqa ustuvor yo‘nalishlarni – iqtisodiy, transport va madaniy-gumanitar sohalarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi ShHTning bu iqtisodiy sohadagi ulkan salohiyatini juda yaxshi anglaydi va shundan kelib chiqib tashkilot doirasida moliyaviy mexanizmlarni (ShHT Taraqqiyot fondi va banki⁴³) shakllantirish tarafodori bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ayniqsa oxirgi yillarda savdo-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishni O‘zbekiston tashkilotning ustuvor faoliyat yo‘nalishiga aylantirishga harakat qilib keladi⁴⁴. Bu quyidagi ikkita asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, 2017-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ShHT sammitlarida tashkilot faoliyatini “iqtisodiy lashtirishga” qaratilgan o‘nlab tashabbus va takliflarni ilgari surgan. Ularning natijasi o‘laroq, ShHTning savdo-iqtisodiy va tarmoqlararo hamkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator shartnomalar, dasturlar, konsepsiyalar va strategiyalar (jami 16 ta), shuningdek 10 ga yaqin amaliy hamkorlik mexanizmlari shakllantirildi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning ShHTga nisbatan pragmatik yondashuvi va tashabbuskorligi ushbu tashkilotda ishtirok etuvchi mamlakatlar bilan ikkitomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ShHT sammitlari, hukumat rahbarlari va iqtisodiy faoliyatga mas’ul vazirlari uchrashuvlarida ikkitomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari muntazam muhokama qilinadi va tegishli kelishuvlarga

⁴³ ШХТ Тараққиёт фонди ва Тараққиёт банки Хитой томонидан таклиф этилган, лекин асосан Россиянинг қаршилиги туфайли амалга оширилмасдан қолмоқда.

⁴⁴Межевич Н. М., Шевчук Н.В., Сенник Н. М., Го Шухун. ШОС и стратегические цели развития Республики Узбекистан. Журнал «Управленческое консультирование». № 9 . 2022. С.68-78.

erishiladi. O‘zbekiston Prezidenti va yuqori darajadagi delegatsiyalari tashkilot doirasidagi tadbirlardan bunday yondashuvni ancha samarali qo‘llashadi. Shu ma’noda ShHT mamlakatimizning iqtisodiy diplomatiyasini ilgari surish uchun muhim platforma sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Shuni ta’kidlash joiz, ShHT – bu klassik modeldagi iqtisodiy hamkorlik tashkiloti emas. Qolaversa, uning yetakchi a’zolari, xususan, Rossiya, Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi kelishmovchiliklar tashkilotning iqtisodiy sohadagi katta salohiyatini hayotda tadbiriq etish imkoniyatini bermayapti. Bundan tashqari, ShHTda iqtisodiy hamkorlikning qariyb institusionallashmagan, bu sohadagi mavjud mexanizmlarning va muloqot formatlar mo‘rt, tashkilotda iqtisodiy mohiyatdagi loyihalarni va tashabbuslarni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlari shakllanmagan. Mana shu sababdan ham Shanxay hamkorlik tashkilotida a’zo mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilayotgan ko‘plab iqtisodiy tashabbuslarning ijrosi ta’minlamasdan qolib ketmoqda.

O‘zbekiston har doim ShHT doirasida transport-tranzit sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishda tashabbuskorlik va jonbozlik ko‘rsatib keladi.

Tashkilot egallab turgan katta hududning (35 mln. km²) o‘zi unda transport kommunikatsiyalarini keng rivojlantirishni taqozo etadi. Bu katta jo‘g‘rofiy makonida hozirda 13 mln. km. dan ortiq (shulardan 15 ming km tezyurar) avtomobil (butun dunyo avtomagistrallarining qariyb 20%) va 244 ming km temir yo‘llar (ularga butun dunyo yuk tashishlarining 70%dan ko‘prog‘i to‘g‘ri keladi)⁴⁵. Lekin, bu ko‘rsatkichlarga qaramasdan, ushbu ulkan hududning transport-kommunikatsiya va infratuzilmalar orqali o‘zaro bog‘liqlik darajasi juda past. Xususan, eramizdan avvalgi III asrdan to XVII asrga qadar karvon yo‘llari orqali jadal savdo aloqalariga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo⁴⁶ o‘rtasida zamonaviy transport koridorlari qariyb mavjud emas. Markaziy Osiyoning o‘zi esa dunyoda eng past darajada “o‘zaro bog‘langan” mintaqalardan biri hisoblanadi, bu ko‘rsatkich global Yalpi ichki mahsulotga nisbatan transportdan foydalanish koeffisienti 60%ni tashkil etib, bu juda past hisoblanadi. Qolaversa, sobiq SSSR davrida mintaqa respublikalarining transport aloqalari asosan “Markaz”ga, ya’ni Rossiya hududiga bog‘liq holda shakllantirilgan. Natijada bugun ham Markaziy Osiyo mamlakatlarining Rossiya hududi orqali o‘tadigan transport yo‘laklariga bog‘liqlik darajasi juda baland.

O‘zbekiston dunyoda xalqaro dengiz yo‘llari uchun kamida ikkita davlat hududini kesib o‘tishga majbur bo‘lgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyoda va umuman ShHT makonida transport o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirishdan o‘ta manfaatdor. Qolaversa, mamlakatimizning umumiy yuk tashuvining 98% aynan ShHT mamlakatlariga to‘g‘ri keladi⁴⁷. Joiz bo‘lsa, uning iqtisodiy taraqqiy topishi, geosiyosiy va geiqtisodiy salohiyati istiqbolda mintaqamizning transport-tranzit

⁴⁵ Bu 2018 yil ko‘rsatkichlari Qarang. The 2018 Logistics Performance Index / The World Bank // lpi.worldbank.org/international/global

⁴⁶ Зиядуллаев Н.С. Центральная и Южная Азия: внешнеторговые и транспортно-транзитные инициативы. Российский внешнеэкономический вестник. – №8, 2021, – С.33-46.

⁴⁷ ШОС и транспорт – возрождение величия Шёлкового пути. 14.09.2022 // <https://review.uz/post/shos-i-transport-vozrozhdenie-velichiya-shyolkovogo-puti>.

imkoniyatlarining amalda ro'yobga chiqishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ushbu ob'ektiv qonuniyat O'zbekiston geostrategiyasida va xususan ShHTga nisbatan yondashuvda transport o'zaro bog'lik masalasining o'ta dolzarbligini va ustuvorligini belgilab beradi. Shulardan kelib chiqib, tashkilot doirasida mamlakatimiz transport-tranzit sohalarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga katta ahamiyat qaratadi.

Birinchi yo'nalish – ShHT platformasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo uchun muhim bo'lgan transport koridorlarini siyosiy-diplomatik darajada faol ilgari surish. Bular birinchi navbatda, “O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy”, “Mozori Sharif – Hirot” temir yo'llarini qurish loyihalaridir. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan qat'iy, shu jumladan, ShHT doirasidagi say'haakatlar tufayli, mazkur loyihalar bo'yicha ishlar ancha jiddiy tus oldi. Xususan, 2024-yilning 7-iyun kuni Pekin shahrida uchta davlat transport vazirlari tomonidan “O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy” temir yo'li loyahasini birgalikda amalga oshirishda hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Hujjatda temir yo'l loyahasini moliyalashtirish va qurishning asosiy tamoyillari va mexanizmlari belgilangan. Jumladan, 2024-yilning iyun oyidayoq temir yo'li qurilishi bilan shug'ullashuvchi qo'shma korxonalar tashkil etilishi rejalashtirilgan⁴⁸.

“Termiz-Kobul-Mozori Sharif – Hirot” temir yo'lagini qurish loyihasi ham ShHT doirasida tashkilot makonida transport o'zaro bog'liqligini kuchaytirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida O'zbekiston tomonidan muntazam ilgari suriladi. Bundan asosiy maqsad, fikrimizcha, mazkur loyihaning xalqaro darajadagi e'tirofini mustahkamlash, uning istiqbollari bo'lgan ayrim pessimistik kayfiyatlarni⁴⁹ yo'qqa chiqarish hamda salohiyatli yirik sheriklarning, xususan, Rossiya va Xitoy kabi katta davlatlarning loyihaga nisbatan siyosiy-diplomatik, joiz bo'lsa moliyaviy qiziqishini shakllantirishdan iborat.

O'zbekistonning ShHTdagi transport diplomatiyasidagi ikkinchi *ustuvor yo'nalish* – tashkilotning transport-tranzit sohasidagi hamkorligining shartnomaviy-huquqiy bazasini va institusional asoslarini shakllantirishdan iborat. Tashkilotga kiruvchi mamlakatlar transport-kommunikatsiya tizimlari bilan o'zaro bog'lanmaganligidan tashqari, ularning o'zaro hamkorligining huquqiy asoslari va mexanizmlari ham juda past rivojlangan. Shundan kelib chiqib, o'zbek tomoni bu yo'nalishda doim faolligi bilan ajralib turadi. Xususan, mamlakatimiz taklifi bilan 2004-yildayoq ShHTga a'zo davlatlarning tranzit sohasidagi salohiyatini rivojlantirish bo'yicha Ishchi guruhi tuzilgan. Shuningdek, ShHTga a'zo davlatlar temir yo'l ma'muriyatlarining o'zaro hamkorligi konsepsiyasi (2018-y.), Temir yo'l ma'muriyatlarining uchrashuvi mexanizmi (2018), ShHTning transport forumi (2022-y.) kabi amaliy hamkorlik formatlari ham O'zbekiston tashabbusi bilan tuzilgan.

Shu bilan birga, tahlillar va kuzatuvlarga ko'ra, mamlakatimiz taklif qilayotgan bu boradagi ko'plab tashabbuslar ShHT davlatlari orasida ichki

⁴⁸ Китай, Кыргызстан и Узбекистан подписали соглашение о строительстве железной дороги. 10.06.2024 // <https://www.railway.supply/kitaj-kyrgyzstan-i-uzbekistan-podpisali-soglashenie-o-stroitelstve-zheleznoj-dorogi/>

⁴⁹ What's Behind the Planned Uzbekistan-Afghanistan-Pakistan Railway? // The Diplomat. February 25, 2021 // <https://thediplomat.com/2021/02/whats-behind-the-planned-uzbekistan-afghanistan-pakistan-railway/>

konsensus yo‘qligi tufayli hayotga tatbiq etilmasdan yoki amaliy samaradorligi past bo‘lib qolmoqda. Lekin bundan qat’iy nazar, fikrimizcha, kelgusida O‘zbekistonning transport o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirishga qaratilgan strategiyasi uchun ShHT muhim ko‘ptomonlama hamkorlik maydoni bo‘lib qoladi va uning ahamiyati yanada ortadi. Shundan kelib chiqib, dissertatsiyanin tayyorlash davomida O‘zbekistonning istiqboldagi transport-tranzit salohiyatini tashkilotdagi ishtiroki orqali yanada kuchaytirish maqsadida “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar o‘rtasida yuklarning tranzit tashuvlari bo‘yicha hamkorlik” shartnomasining namunaviy modeli ishlab chiqildi.

O‘zbekistonning ShHTga nisbatan strategiyasidagi yana bir ustuvor yo‘nalish bo‘lgan madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish masalalariga, ayniqsa, oxirgi yillarda katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu tendensiya, fikrimizcha, bir tomondan, 2017-yildan e‘tiboran mamlakatimiz tashqi siyosatda “yumshoq kuch” vositalariga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishi bo‘lsa⁵⁰, boshqa tomondan, umuman ShHT bilan hamkorlik masalalariga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi bilan bog‘liq⁵¹. O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi eng katta yutuqlaridan biri ShHT doirasida xalq diplomatiyasining faollashuviga qo‘shayotgan katta hissasida namoyon bo‘ladi. 2018-yilning 26-iyunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3807-sonli Qarori bilan O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Halq diplomatiyasi markazi tashkil etildi. ShHT mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni, millatlararo va dinlararo totuvlik, sivilizatsiyalararo muloqot, madaniy-gumanitar aloqalar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish⁵² mazkur tuzilmaning asosiy maqsad va vazifalari sifatida belgilangan. Umuman olganda, o‘tgan davrda ichida Markaz ShHTda xalq diplomatiyasini rivojlantirishga hamda shu faoliyati orqali O‘zbekistonning “yumshoq kuch” diplomatiyasini hayotga tadbiq etishda faol ishlar olib bormoqda.

Bu yo‘nalishda O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilgan yana bir muhim loyiha – bu 2002-yilda mamlakatimizning ShHTdagi raisligi davrida ta‘sis etilgan “ShHTning ezgu niyat elchisi” instituti bo‘ldi. Tegishli Nizomga muvofiq, ezgu niyat elchilari ShHTning asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalarini va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini mintaq va xalqaro makonda keng yoyish masalalari bilan shug‘ullanadi. “Xalq diplomatiya”sining yana bir vositasi sifatida ushbu institut tashkilot doirasida “yumshoq kuch”ning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistondan Badiiy akademiya raisi A.Nur ShHT ezgu elchisi faoliyat ko‘rsatmoqda⁵³.

Kengayishda davom etayotgan, bugungi kunda turli sivilizatsiyalar, dinlar va madaniyatlarni o‘zida mujassam etgan 30 ga yaqin mamlakatni qamrab olgan ShHT, fikrimizcha, O‘zbekiston tomonidan mohirona madaniy diplomatiyani

⁵⁰Таджиев, Ш. (2023). “Мягкая сила” во внешней политике Республики Узбекистан на современном этапе. in Library, 3(3), 3–237. <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/24084>

⁵¹ Сайфуллаев Д.Б. Узбекистан-ШОС: тенденции развития многосторонней культурной дипломатии. “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations”. VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 1. С.701-706.

⁵² PQ-3807-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/3795314?ONDATE=29.12.2023>

⁵³ <https://yuz.uz/news/ozbekiston-badiiy-akademiyasi-raisi-shanxay-hamkorlik-tashkilotining-ezgu-niyat-elchisi-boldi>

yuritish uchun juda muhim va istiqbolli platforma bo'lishi kutilmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizning tashkilot bilan hamkorlik strategiyasida madaniy, turistik va xalq diplomatiyasi vositalaridan yanada samarali va kengroq foydalanish zarur. Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan ta'sis etilgan Xalq diplomatiyasi Markazi va ShHTning ezgu niyat elchisi institutining faoliyatini yanada ommaviylashtirish maqsadga muvofiqligini qayd etamiz.

“O'zbekiston Respublikasi ShHTga oid siyosatini takomillashtirish: muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar” nomli to'rtinchi bob Shanxay hamkorlik tashkilotida kechayotgan asosiy tendensiyalar – uning keyngayishi, transformatsiyasi va bo'lajak islohotlarning istiqbollari mamlakatimizning milliy manfaatlari nuqtai-nazaridan tahlil qilinib, respublikaning ushbu tuzilmaga nisbatan strategik yondashuvlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar keltirilgan.

ShHT hali nisbatan yosh tashkilot, bu uning o'rta va hatto uzoq kelajakda rivojlanishda davom etishini taqoza etadi. Bundan tashqari, zamonaviy xalqaro munosabatlarda kechayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari, shu jumladan, yangi dunyo tartibotining shakllanish istiqbollari ham tashkilotdagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishi muqarrar⁵⁴. Tashkilotning kengayishi va transformatsiyasi, o'z navbatida, uning istiqboldagi evolyutsiyasiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir jarayon – tuzilmaning ishol qilinishini hozirdanoq kun tartibiga qo'ymoqda.

Ushbu uchala tendensiya tashkilotning “o'rtamiyona” va eng faol a'zolaridan biri bo'lgan, uning “geografik yadrosi” hisoblangan Markaziy Osiyoning yetakchi vakili, shuningdek, keng ShHT makonida hamkorlik va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga intilayotgan O'zbekistonning mazkur tuzilmaga nisbatan strategiyasida hisobga olinishi shart bo'lgan hal qiluvchi omillar deb hisoblaymiz. Shulardan kelib chiqib, o'zbek diplomatiyasi bularning har biriga nisbatan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish talab qilinadi.

ShHTning 2017-yilda Hindiston va Pokiston hisobiga kengayishi ilmiy-tahliliy doiralarda tashkilotning avvalgi samarasining kamayishiga, hatto Qo'shilmaslik Harakati singari aniq kun tartibiga ega bo'lmagan siyosiy muloqot platformasiga aylantirishi to'g'risidagi fikrlar va bashoratlarni keltiriladi⁵⁵. Eronning 2023-yildagi, Belarusning 2024-yilda tuzilmaning to'la huquqli a'zolariga aylanishi bu munozaralarni yanada kuchaytirmoqda⁵⁶.

⁵⁴ SHHTning eng kamida uch nafar a'zosi – Xitoy, Rossiya va Hindiston yangi qaror topayotgan ko'pqtubli dunyoda mustaqil “qutb” bo'lishga intilishmoqda.

⁵⁵ Naveed Ahmad. India's and Pakistan's Memberships Diminishes SCO's Ability to Compete with NATO. July 18, 2017, the SACI Analyst. Ефременко Д.В. Шанхайская организация сотрудничества после расширения: новые вызовы и перспективы. // Вестник Московского Университета. Серия XXV. Международные отношения и мировая политика. 2019;11(3):128-159.; Alexei Kupriyanov. The SCO and the conflict between India and Pakistan. Expert Speak Raisina Debates. Dec 08, 2020 // <https://www.orfonline.org/expert-speak/sco-conflict-between-india-pakistan/>; Р.Изимов: ШОС находится на пороге больших трансформаций. <http://mirperemen.net/2019/04/izimov-shos-naxoditsya-na-poroge-bolshix-transformacij/>; Р.Нуримбетов. Халқаро муносабатлар трансформацияси шароитида Шанхай ҳамкорлик ташкилоти фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Сийсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Тошкент – 2021; Вали Каледжи. Вызовы расширения ШОС на Кавказ и Ближний Восток. 28.08.2023 // <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/vyzovy-rasshireniya-shos/>; C.Raja Mohan. India and the SCO: All is Not Well. 10 July 2023 // ISAS Briefs // <https://www.isas.nus.edu.sg/papers/india-and-the-sco-all-is-not-well/>

⁵⁶Hakkı Uygur. The Meaning of Iran's Membership in the Shanghai Cooperation Organization. 15.07.2023. //

Kelajakda ShHTga to‘laqonli a‘zo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimolli nomzodlar, bizningcha, bu – Ozarbayjon va Afg‘oniston.

Ozarbayjon 2016-yildan buyon ShHTda muloqot bo‘yicha sherik maqomiga ega va 2018-yilda kuzatuvchi maqomini olish bo‘yicha rasman murojaat qilgan. Hozirga qadar Ozarbayjon va Armaniston o‘rtasidagi hududiy ziddiyat tufayli rasmiy Bokuning yuqoridagi murojaati yuzasidan ShHT davlatlari ichida yakdillik shakllanmay kelayotgan edi. Lekin, Ozarbayjon hududiy yaxlitligining to‘liq qayta tiklanishi, ya‘ni Qorabog‘ hududining qaytarilishi bilan, ham Ozarbayjon, ham Armanistonni ShHTga kuzatuvchi sifatida qabul qilish uchun to‘siq bo‘lib kelayotgan “hududiy ziddiyat” muammosi yo‘qoldi.

Afg‘oniston nomzodiga kelsak, ushbu mamlakat tashkilotda 2012-yildan beri kuzatuvchi maqomiga ega. Ayni paytda “Tolibon” hukumatining xalqaro tan olinmaganligi sabab Afg‘onistonning ShHTdagi mazkur maqomda ishtiroki vaqtincha to‘xtatilgan⁵⁷. Lekin, bu jarayon uzoq davom etmasligi aniq. O‘zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari va umuman ShHT ishtirokchilari Afg‘onistonda tez orada barqarorlik va tinchlik o‘rnatilishidan, uning mintaqada kechayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishidan manfaatdor. Agarda yaqin kelajakda Afg‘onistonda ichki barqarorlik to‘liq ta‘minlanib, kuchli markaziy hukumat shakllansa va u xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinsa, bizningcha, tez orada mazkur davlatning ShHTga to‘liq huquqli a‘zo bo‘lib kirish masalasi kun tartibiga chiqadi. Geografik nuqtai-nazardan yondashilsa, Afg‘oniston – bu ShHTning “tabiiy ishtirokchisi” bo‘lishi kerak.

Ozarbayjon hamda legitimligi tan olingan, siyosiy barqaror va xalqaro huquq normalarini, qo‘shni davlatlarning manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan va xavf solmaydigan Afg‘onistonning ShHTga to‘laqonli a‘zo bo‘lib kirishi O‘zbekiston milliy manfaatlariga to‘liq mos ekanligi shubhasiz. *Birinchi*dan, bu Markaziy Osiyoda strategik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. *Ikkinchi*dan, mamlakatimizning mintaqadagi geosiyosiy va geoiqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytiradi. *Uchinchi*dan, O‘zbekistonning ShHT mintaqasidagi yetakchi transport-tranzit xabiga aylanishi uchun siyosiy shart-sharoitlarni yaxshilaydi, chunki Afg‘oniston Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi strategik davlat bo‘lsa, Ozarbayjon – mintaqamizni Kavkaz orqali Yevropa bozorlari bilan bog‘lovchi eng asosiy istiqbolli “O‘rta yer” transport yo‘lagini nazorat qiluvchi mamlakat. *To‘rtinchi*dan, bu ikkala mamlakat ham, fikrimizcha, ShHTda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ta‘sirini

https://iramcenter.org/en/the-meaning-of-irans-membership-in-the-shanghai-cooperation-organization__en-2398;
Jonathan Fulton. Iran joining the SCO isn’t surprising. But Beijing’s promotion of illiberal norms in Eurasia should get more attention. July 13, 2023. Atlantic Council // <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/iransource/iran-sco-china-bri-illiberal-norms/>; Aydın Güven. Aydın Güven. Iran’s Membership of Shanghai Cooperation Organization: Expectations and Possible Scenarios. 29/09/2021 // <https://iramcenter.org/en/irans-membership-of-shanghai-cooperation-organization-expectations-and-possible-scenarios-589>; . П. Рубо. Интересы и перспективы участия Республики Беларусь в Шанхайской организации сотрудничества в качестве полноправного члена. Постсоветские исследования. Т.6. № 2 (2023). С.160-168; Eva Seiwert. The SCO faces rewards and risks as it admits Belarus. MERICS Comment. Jul 02, 2024 // <https://merics.org/en/comment/sco-faces-rewards-and-risks-it-admits-belarus>

⁵⁷ Ajaz Wani. A House Divided: The SCO’s Afghanistan Conundrum. Aug 13, 2023 // <https://www.orfonline.org/research/a-house-divided-the-sco-s-afghanistan-conundrum>

kuchaytirishga xizmat qiladi (asosan “katta a’zolar”ga nisbatan muvozanatlashtirish strategiyasi uchun). Shunga asoslanib, fikrimizcha, O‘zbekiston bu ikkala davlatning ShHTdagi intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi muhim, deb hisoblaymiz.

ShHTning kengayishi uni isloh qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. ShHTni isloh qilishga yetarlicha ehtiyoj mavjudligini unga a’zo davlatlar ham juda yaxshi anglashadi. 2022-yilda o‘tkazilgan Samarqand sammitida tashkilot faoliyatini isloh qilish uchun huquqiy va siyosiy jihatdan yo‘l ochib bergan “Shanxay hamkorlik tashkilotini takomillashtirish to‘g‘risida”gi davlat rahbarlarining qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, tashqi ishlar vazirlari Kengashi tomonidan tegishli takliflar ishlab chiqilishi va davlat rahbarlari Kengashiga taqdim etilishi kerak⁵⁸.

O‘zbekiston Respublikasining ShHTni isloh qilish masalasiga munosabati ijobiy va qat’iy. Bu pozitsiyani Prezident Sh.Mirziyoyev ShHTning 2022, 2023 va 2024-yillardagi sammitlarida aniq bayon qilgan. Davlat rahbarining tashkilot sammitlaridagi nutqlari, shuningdek mavzuga hukumatga yaqin tahlil markazlari vakillarining ochiq manbalarda keltirilgan fikr-mulohazalarini⁵⁹ umumlashtirgan holda, O‘zbekistonning ShHTni isloh qilish masalalariga yondashuvlari quyidagilardan iborat, deb hisoblaymiz:

1. Qarorlar qabul qilishda konsensus tamoyilining o‘zgarmasligi va tashkilotning bloklardan xoli maqomini saqlab qolish, uning ochiqligi, uchinchi mamlakatlarga qarshi qaratilmagani, iqtisodiy, harbiy va siyosiy salohiyatidan qat’iy nazar barcha ishtirokchilarning teng huquqliligi va suverenitetini hurmat qilishga qat’iy rioya etish .

2. ShHTda amaliy hamkorlikni kengaytirishni ustuvor deb hisoblaydi va shundan kelib chiqib, mana shu maqsad va vazifalarga xizmat qiluvchi yangi ishchi mexanizmlar va formatlarni shakllantirish. Bular, xususan, savdo, moliya, investisiya, transport-logistika va shu kabi boshqa tijoriy aloqalarni nazarda tutadi.

3. Tashkilot doirasida xavfsizlik sohasida hamkorlikni kuchaytirish, uning bu sohadagi faoliyatini yangi shart-sharoitlarga moslashtirish. Xususan, kibermakonda yuzaga kelayotgan tahdidlarga samarali kurashish maqsadida ShHTning Mintaqaviy aksiterrorchilik tuzilmasining faoliyatini takomillashtirish tarafdori.

4. ShHT faoliyatida “yumshoq kuch” vositalarini qo‘llashni kengaytirish, madaniyat, turizm va sport sohadarida qo‘shimcha hamkorlik formatlarini ta’sis qilish orqali a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hurmat muhitini mustahkamlash.

5. ShHT kun tartibida iqlim, ekologiya va “yashil taraqqiyot” sohasidagi hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish. Jumladan, O‘zbekiston tomonidan

⁵⁸2024 yil 3 iyulda Ostona shaharida o‘tkazilgan sammitda davlat rahbarlari tashqi ishlar vazirlarining SHHTni takomillashtirishga qaratilgan takliflarini tegishli qaror bilan ma’qullashgan. Qarang: <https://www.zakon.kz/politika/6440387-sammit-shos-v-astane-kakie-dokumenty-podpisali-stranyuchastniki.html>

⁵⁹ Курбанов Д. К вопросу совершенствования деятельности ШОС // <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/8-povosti/6090>; Акрамжон Нейматов обозначил приоритетные направления в контексте реформирования деятельности ШОС // <https://aktualno.uz/ru/a/9570-akramzon-nematov-oboznacil-prioritetnye-napravleniya-v-kontekste-reformirovaniya-deyatelnosti-sos>

tashkilotning Iqlim Kengashini va Iqlim bo'yicha innovasion yechimlar markazini tuzish taklif etilgan.

6. ShHTning shartnomaviy-huquqiy bazasini va ishchi organlari, jumladan, Kotibiyat faoliyatini takomillashtirish, uning qabul qilingan qarorlar va kelishuvlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan vakolatlarini kuchaytirish.

